

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION YONDOSHUVLARI

Sharafutdinova Durдона Akmalevna

Xalqaro Nordik Universiteti

“Psixologiya va maktabgacha ta'lim” kafedrası

katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan hamkorlikdagi faoliyatlarini noan'anaviy usulda tashkil etishga oid innovatsion yondoshuvlar tahlil qilingan*

Kalit so'zlar: *innovatsion yondoshuv, hamkorlik, iqtidorli bolalar, “Pedagogik laboratoriya”, “Bolalar konferensiyasi”, “Master-klass”, “Fikrim bor” tok-shousi.*

Kirish

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish jamiyatning kelajagini belgilovchi muhim bosqich bo'lib, uning sifatli tashkil etilishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oila o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 2-bobiga nazar tashlaydigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar sifatida ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobiy jihatlari va foydasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi ko'rsatib o'tilgan. Ko'rsatilgan muammolarni bartaraf etgan holda oila va MTT hamkorligini yo'lga qo'yish vazifalari belgilab berilgan.

Hamkorlik masalasi ilmiy tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo'lgan. Mashhur pedagog va psixolog olim S.Vigotskiy bolalar rivojlanishi va oilaviy muhitning ta'siri haqida o'zining "Kognitiv rivojlanish va ta'lim" asarida, bolalarning rivojlanishi uchun ularning atrofidagi ijtimoiy muhit, ayniqsa, oilaviy muhit muhimligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, bolalarni ijtimoiy muhitda, ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari va ular bilan ishlaydigan pedagoglar bilan hamkorlikda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Ta'lim tizimini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim usullarini va innovatsion yondoshuvlarni maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga tatbiq etishda rivojlangan davlatlarning ta'lim jarayonlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Rivojlangan davlatlardan biri sifatida Finlyandiya tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu mamlakatda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining va oilalar bilan aloqalar juda rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Ular "Close to Families" dasturi orqali ota-onalar va tashkilot pedagoglari doimiy muloqotda bo'lib turishadi, bolani rivojlanishiga ikki taraflama ta'sir qilishadi.

Yaponiya davlatida esa oila va ta'lim muassasasi o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun "Family-Teacher Partnership" dasturi ishlab chiqilgan va bu orqali oilalar bilan doimiy uchrashuvlar va ijtimoiy faoliyatlar amalga oshirib boriladi.



Kanada davlatida esa ota-onalarni va oilalarni bolalar ta'lim oladigan tashkilotlar bilan hamkorligini samarali yo'lga qo'yish uchun maxsus platformalar ishlab chiqilgan va seminarlar yo'lga qo'yilgan. Ota-onalar "Family Involvement" dasturi orqali ota-onalar tashkilot faoliyatlariga faol qatnashib boradilar.

Rivojlangan davlatlarning tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ham MTT va oila hamkorligini tashkil etishning innovatsion yo'nalishlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bunda asosan ota-onalar bilan muloqotni kengaytirish, bolalardagi iqtidor yoki kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlashga imkon tug'iladi. Pedagogning ota-onalar hamkorlikda iqtidorli bolalarning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun sharoit yaratish hamkorlikdagi muhim vazifa hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar yordamida hamkorlikni yanada samarali tashkil etish mumkin:

1. Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar yordamida hamkorlikni rivojlantirish – bu yo'nalishda olib boriladigan ishlar ham pedagog ham ota-ona uchun qulay hisoblanadi. Sababi ota-ona farzandi haqidagi har qanday ma'lumotni istalgan vaqtda olish va pedagog bilan muntazam aloqa o'rnatish imkoniga ega bo'ladi.

2. Video va onlayn seminarlar – bu orqali ota-onalarga farzandinining kundalik faoliyati haqida ma'lumot berish, farzand tarbiyasi hamda uning o'ziga xosligi, rivojlanish ko'rsatkichlaridan xabardor qilish mumkin bo'ladi. Onlayn seminarlar esa ota-onalarni qiziqtirgan masalalarda maslahatlar berish, ularning bilimi va psixologik ko'nikmalarni oshirish uchun vebinarlar tashkil etish o'z ichiga oladi.

Faoliyatimizdan kelib chiqqan holda “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida ota-onalar bilan hamkorlikda yig'ilishlar tashkil etishning bir necha innovatsion yondoshuvlarini taklif etamiz:

“Pedagogik laboratoriya” – bu ota-onalar bilan ishlashning istiqbolli shakli sifatida o'quv yili boshida va oxirida o'tkaziladi. Bunda oilalarning dolzarb ehtiyojlarini hisobga oladi va jarayon ishtirokchilarining faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga, farzand tarbiyasi bo'yicha tajriba almashishga yordam beradi. Yil boshida pedagoglar va ota-onalar ta'lim-tarbiya dasturlarini muhokama qilishlari, ota-onalarning yil davomida ishtirok etishi rejalashtirilgan tadbirlarda va ularning takliflarini tinglaydilar. O'quv yili yakunida reja bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari sarhisob qilinadi.

“Bolalar konferensiyasi”. Konferensiyaning asosiy maqsadi – oilaviy tarbiya sohasida tajriba almashishdan iborat bo'ladi. Pedagog ota-onalarga konferensiya mavzusiga aloqador ma'lum bir mavzular bo'yicha oldindan ma'lumot tayyorlashni taklif etadi, kerak bo'lsa mavzularni tanlashda va qatnashchilarning taqdimotini tayyorlashda yordam beradi. O'tkaziladigan konferensiya uchun dolzarb va qiziqarli mavzu tanlash juda muhim. Masalan, “Bolalarda uchraydigan kasalliklar va ularni oldini olish”, “Bolalarni tarbiyalashda oilaning o'rni va ota-onaning vazifalari” kabi mavzularni tanlash tavsiya etiladi. Tadbirda bolalar asarlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini aks rasmlar va boshqa ko'rgazmalarni, bolalar, pedagoglar va oila a'zolarining qo'shma konserti ham tashkil etish mumkin.

“Master-klass” – bu uchrashuv ota-onalar bolalarni tarbiyalash va o‘qitish sohasidagi yutuqlarini namoyish etadigan yig‘ilish sifatida nazariy yoki amaliy shaklda tashkil etilishi mumkin. Bunday tadbirni tashkil etishdan ikki hafta oldin, pedagog bir nechta ota-onalarga belgilangan mavzularni taklif qiladi. Ota-onalar o‘zlariga berilgan mavzu yuzasidan master-klasslar tashkil etib beradilar. Ota-onalarning iltimosiga binoan master-klassni pedagog ham o‘tkazib berishi mumkin. Masalan, “Bolani uy sharoitida chizishga o‘rgatish” mavzusida noan’anaviy tasviriy faoliyat usullaridan ota-onalarni xabardor qiladi va amaliy faoliyatga jalb etadi.

“Fikrim bor” tok-shousi. Ushbu tok-shou ko‘rinishidagi yig‘ilish bitta muammoni har xil nuqtai nazardan muhokama qilishni, belgilangan muammoning batafsil va yechimini topishni o‘z ichiga oladi. Tok-shouda pedagog, ota-onalar nutq so‘zlashadi va boshqa mutaxassislarni ham taklif qilishlari mumkin. Ota-onalarga turli vaziyatli holatlar beriladi. Ularga bahs munozara qilib, muammoni har xil nuqtai nazardan ko‘rib chiqishlari taklif etiladi. “Fikrim bor” tok-shousini tashkil etish oilalar bilan aloqa o‘rnatish va hamkorlikni tashkil etishga o‘tkazishga noodatiy yondashuv ota-onalarni faollashtirish uchun turli usullardan foydalanishni taqozo etadi

J. Piaget ta’kidlaganidek, bolalar individual va ijtimoiy muhitning ta’sirida yangi bilimlarni egallaydi. Ota-onalarning va pedagoglar bolalar bilan faol va muvofiqlashtirilgan hamkorlikda ish olib borishi, bolalarni mustaqil fikrlashga yordam beradi. Shu sababli biz o‘z faoliyatimizda ota-onalarning kognitiv bilimlarini oshirishga harakat qilishimiz lozim.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida hamkorlikni innovatsion yondashuvlar orqali tashkil etish ta’lim sifatini oshirish, bolalarning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish va oilalar bilan rozilikdagi hamkorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar, loyihalar va shaxsiy yondashuvlar yordamida amalga oshiriladigan hamkorlik, maktabgacha ta’limning yangi bosqichlariga qadam qo‘yish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori.
2. Vygotskiy, L. S. (1978). Pedagogik yondashuvlar va ta’lim psixologiyasi.
3. Piaget, J. (1972). Bolalar va rivojlanish muammolari. Gazeta.
4. Sharafutdinova, D. A. (2026). IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH: METODIKA VA TA’LIM ISLOHOTLARI. SHOKH LIBRARY, 1(1).
5. Akmalevna, S. D. As a Pedagogical Process in the Organization of Preschool Education, the Educator Organizes and Directs the Development Centers on the Basis of the State Program" First Step". JournalNX, 682-686.